
Tariximsan, taqdirimsan, kelajagimsan - ona tilim

Til xalqning, millatning tarixi, madaniy merosi, turmush tarzi, urf-odat va an'analarini o'zida mujassamlashtirib, ajdodlardan avlodlarga o'tishini ta'minlaydi. Milliyligimiz, buyuk tariximiz, yuksak ma'naviyatimizni o'zida mujassam etgan o'zbek tili sofligi va jozibasini saqlash, uni boyitish va kelajak avlodga bus-butun holicha yetkazish zimmamizdagi mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Mana bu yil 21-oktabr kuni ona tilimizga davlat tili maqomi berilganligiga 30 yil to'ldi. Yurtimizning barcha go'shalarida tilimizni madh etuvchi badiiy va madaniy-ma'rifiy tadbirlar, turli kechalar, konferensiyalar, tanlovlar o'tkazilmoqda.

Qo'shtepa tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan ham ushbu kun munosabati bilan umumta'lim maktablari, IDUMllarida "Tariximsan, taqdirimsan, kelajagimsan - ona tilim!", "Milliyligim belgisisan, ona tilim", "Jonajon tilim", "Ona tilim - faxrim mening", "Naqadar ulug'san - ona tilimsan" mavzularida bilimdonlar bellashuvi, ko'rgazmali ochiq darslar, insholar tanlovi o'tkazildi. O'quvchilarning o'z ona tili haqidagi fikrlari, uni qanchalik e'zozlashlari o'tkazilgan tadbirlarda aytgan she'r va qo'shiqlari orqali o'z isbotini topdi.

Ona tilimizni qadrlash, asrab-avaylash har birimizning insoniy ziynatimiz, fuqarolik burchimiz ekanligi yana bir bora kelajak avlod vakillariga ustozlari tomonidan tushuntirildi.









2019-10-21 16:53:17